

VII. ISTE'MOL BOZORI

2022- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 31 681,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,5 %ga o'sdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi

	mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida	Yakunga nisbatan % hisobida
Jami	31 681,3	109,5	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	31 681,3	109,5	100,0

Yirik savdo korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2022- yil yanvar-dekabr oylarida 7 582,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,2 %ga oshgan.

Kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo tovar hajmi joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 24 098,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,5 %ni tashkil qilgan.


2022- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	mlrd. so'm	2021- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida	Yakunga nisbatan % hisobida
Chakana savdo tovar aylanmasi	31 681,3	109,5	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	7 582,9	120,2	23,9
kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlik	24 098,4	106,5	76,1
shu jumladan: uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	2 158,4	108,6	6,8

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi

	<i>2021- yil yanvar-dekabr, mlrd. so‘m</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabr, mlrd. so‘m</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</i>
Toshkent viloyati	25 662,9	31 681,3	109,5
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	1458,4	1818,3	110,6
Olmalik	1826,8	2217,9	107,7
Angren	1768,1	2130,4	106,9
Bekobod	1001,3	1233,2	109,2
Ohangaron	509,3	615,3	107,1
Chirchiq	1310,4	1601,3	108,4
Yangiyo‘l	1402,9	1710,1	108,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	861,2	1052,4	108,4
Ohangaron	247,6	299,9	107,4
Bekobod	469,6	569,7	107,6
Bo‘stonliq	1548,0	1893,4	108,5
Bo‘ka	759,1	922,5	107,8
Quyichirchiq	381,9	475,9	110,5
Zangiota	5197,6	6596,6	112,6
Yuqori Chirchiq	775,4	947,9	108,4
Qibray	1671,6	2089,4	110,9
Parkent	784,2	973,6	110,1
Piskent	501,6	606,8	107,3
O‘rta Chirchiq	326,6	394,9	107,2
Chinoz	866,8	1072,6	109,7
Yangiyo‘l	810,1	975,8	106,8
Toshkent	1184,4	1483,4	111,1


Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (%da)



Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 957,1 mlrd. so'mga yetdi yoki 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 117,5 %ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi (umumovqatlanish faoliyatini qo'shgan holda) aholi jon boshiga nisbatan hisoblaganda 107,6 %ni va 10 680,8 ming so'mni tashkil etdi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 8 803,8 ming so'mni tashkil etgan).

Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi (%da)



Toshkent viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng yuqori ulush Zangiota (20,8 %), Qibray (6,6 %), Bo'stonliq (6,0 %) tumanlari hamda Olmaliq (7,0 %) va Angren (6,7 %) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so‘m	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	10 680,8	107,6
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	34 051,5	107,9
Olmaliq	16 212,6	105,7
Angren	12 070,5	104,6
Bekobod	12 209,6	107,4
Ohangaron	15 229,4	104,8
Chirchiq	9 623,0	106,7
Yangiyo‘l	21 137,0	105,7
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo‘rg‘on	9 637,7	106,5
Ohangaron	2 774,6	105,6
Bekobod	3 522,9	105,8
Bo‘stonliq	10 881,7	107,2
Bo‘ka	7 020,6	105,8
Quyichirchiq	4 207,6	108,5
Zangiota	39 429,7	112,7
Yuqorichirchiq	6 975,0	105,5
Qibray	12 105,5	109,4
Parkent	5 605,1	108,1
Piskent	5 818,1	105,6
O‘rtachirchiq	2 946,8	106,2
Chinoz	7 612,2	107,2
Yangiyo‘l	5 019,8	104,6
Toshkent	7 799,4	108,3

2022- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 10 680,8 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,6 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Zangiota (39 429,7 ming so'm) va Qibray (12 105,5 ming so'm) tumanlari hamda Nurafshon (34 051,5 ming so'm) va Yangiyo'l (21 137,0 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Ohangaron (2 774,6 ming so'm), O'rta Chirchiq (2 946,8 ming so'm) tumanlari va Chirchiq (9 623,0 ming so'm) shahriga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

